

**XV-XVI ASR TARIXIY, ADABIY-BADIIY MANBALARIDAN NAMUNALAR****Gafurova Surayyo Ulug'bekovna****Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi v.b. dotsenti,****filologiya fanlari doktori (DSc)****<https://orcid.org/0000-0003-0422-4303>****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20772830>**

**Annotatsiya.** Kishilik jamiyatining har bir davri tarixini o'rganishda o'sha davr tarixnavislari yozib qoldirgan nodir asarlar muhim ahamiyatga ega sanaladi. Ularni atroflicha va chuqur ilmiy asosda talqin etish manbashunos, filolog olimlarning oldida turgan muhim vazifalardandir. Ma'lumki, o'zbek tili nihoyatda uzoq tarixga ega bo'lib, uning taraqqiyotida ayrim lisoniy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi bir qancha davriy bosqichlari mavjud. Zero, o'zbek tilining ana shu bosqichlaridan XV-XVI asrlardagi rivojlanish davri dunyo olimlari tomonidan "oltin davr" deb tan olingan ekan, bu davrga oid har bir asar tilini har tomonlama tahlil etish hamda atroflicha yoritishga zaruriyat deb qarash lozim.

O'zbek tilining mukammal tarixiy fonetikasi, leksikasi, grammatikasini yaratish o'zbek tili tarixiga oid yozuv yodgorliklari tilining o'rganilishi bilan bog'liqdir. Shu sababdan keyingi yillarda turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida yozma yodgorliklar tilini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar yaratildi. Bunda til taraqqiyoti davrlarini kuzatishdagi asosiy manba sifatida adabiy asarlardan foydalaniladi, eski o'zbek tiliga oid manbalarning ko'pchiligi nazmiy asarlar bo'lib, nasriy asarlar nisbatan kam sonni tashkil etadi. Mana shu nisbiy yetishmovchilikni nasriy yo'l bilan yozilgan tarixga oid asarlardan foydalanish hisobiga qoplash mumkin. Shunday manbalardan biri bizning tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan "Tavorixi guzida - Nusratnoma" asaridir.

**Kalit so'zlar:** tarixiy manba, adabiy-badiiy manba, tarixnavis, lisoniy xususiyatlar, yodgorliklar, yozma yodgorliklar tili, nasriy asar, nazmiy asar, turkiyshunoslik, til taraqqiyoti.

**EXAMPLES FROM HISTORICAL AND LITERARY SOURCES OF THE 15TH-16TH CENTURIES****Gafurova Surayyo Ulug'bekovna****Acting associate professor of the department of Linguistics,****Fergana State University, doctor of philological sciences (DSc)**

**Annotation.** In the study of the history of each period of human society, the rare works written down by historians of that period are considered important. Interpreting them on a comprehensive and deep scientific basis is one of the important tasks faced by source studies and philological scientists. It is known that the Uzbek language has a very long history, and in its development there are several periodic stages that differ from each other with some linguistic features. After all, since the period of development of the Uzbek language in the 15th-16th centuries is recognized by world scientists as the "golden age", it is necessary to comprehensively analyze the language of each work of this period and comprehensively cover it.

The creation of perfect historical phonetics, lexicon, and grammar of the Uzbek language is related to the study of the language of written monuments related to the history of the Uzbek language. For this reason, in the following years, a number of scientific works dedicated to the study of the language of written monuments were created in Turkic studies, including Uzbek linguistics. Literary works are used as the main source for tracking the periods of language development, most

of the sources related to the old Uzbek language are poetic works, and prose works are relatively few. This relative lack can be compensated by the use of historical works written in prose. One such source is the work "Tawarihi guzida - Nusratnama", which is the object of our research.

**Keywords:** historical source, literary-artistic source, historian, linguistic features, monuments, language of written monuments, prose work, poetic work, Turkic studies, language development.

Kishilik jamiyatining har bir davri tarixini o'rganishda o'sha davr tarixnavislari yozib qoldirgan asar muhim ahamiyatga ega sanaladi. Ularni atroflicha va chuqur ilmiy asosda talqin etish manbashunos, filolog olimlarning oldida turgan muhim vazifalardandir. Ma'lumki, o'zbek tili nihoyatda uzoq tarixga ega bo'lib, uning taraqqiyotida ayrim lisoniy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi bir qancha davriy bosqichlari mavjud. Modomiki, o'zbek tilining ana shu bosqichlaridan XV-XVI asrlardagi rivojlanish davri dunyo olimlari tomonidan "oltin davr" deb tan olingan ekan [Samoylovich, 1928: 21], bu davrga oid har bir asar tilini har tomonlama tahlil etish hamda atroflicha yoritishga zaruriyat deb qarash lozim.

O'zbek tilining mukammal tarixiy fonetikasi, leksikasi, grammatikasini yaratish o'zbek tili tarixiga oid yozuv yodgorliklari tilining o'rganilishi bilan bog'liq. Shu sababdan keyingi yillarda turkiyshunoslik, jumladan, o'zbek tilshunosligida yozma yodgorliklar tilini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar yaratildi. Bunda til taraqqiyoti davrlarini kuzatishdagi asosiy manba sifatida adabiy asardan foydalaniladi, eski o'zbek adabiy tiliga oid manbalarning ko'pchiligi nazmiy asar bo'lib, nasriy asar nisbatan oz sonni tashkil etadi. Mana shu nisbiy yetishmovchilikni nasriy yo'l bilan yozilgan tarixga oid asardan foydalanish hisobiga qoplash mumkin. Shunday manbalardan biri "Tavorixi guzida. Nusratnoma" asaridir.

Asar yaratilgan davr haqida so'z ketganda, Shayboniylar davrida fan va madaniyatning sezilarli darajada rivojlanganligini ta'kidlab o'tish zarur. Sulola hukmdorlari orasida ko'zga ko'ringan olimlarning bo'lgani bunga dalil bo'la oladi. Muhammad Shayboniyxon, Kuchkunchixon, Ubaydullaxonlar o'z davrining eng bilimdon hukmdorlari edi. Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon, Abdullaxon kutubxonalarida qimmatli manbalarning saqlanganligi, o'z davrining nodir kutubxonalaridan biriga asos solinganligi ham bu mulohazani tasdiqlaydi. Movarounnahrda Ulug'bek Mirzo asos solgan olimlar akademiyasi an'analarini davom ettiruvchi ilm ahlari yana birlashishdi. Xususan, Samarqand va Buxoro madrasalarida olim-u fozillar, mudarris, astronom, tabiblar, shoiru tarixchilar asarlar yozishar, toliblarga dars berishar edi.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O'rta Osiyoda hukumronlik qilgan va Shayboniylar sulolasiga asos solgan Muhammad Shayboniyxonga atab, uning harbiy yurishlari va fathlarini bayon qilish maqsadida bir qator tarixiy asarlar yaratilgan. Bular jamlamasiga Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Mulla Shodiyning "Fathnomai xoniy", Binoiyning "Shayboniynoma", "Mehmonnomayi Buxoro" asarini kiritish mumkin. Ularning bir qismi nasrda, boshqalari nazmda eski o'zbek va fors tillarida bitilgan.

Shayboniyning o'zi ham devon tartib berganligi, asar yozganligi haqida manbalarda ma'lumot keltiriladi. Yurtimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi Shayboniyxon "Devon"i haqida 1991 yilda Temur Xo'ja o'g'lining maqolasi orqali xabardor bo'ldi [Temur Xo'ja o'g'li, 1991] Maqolada Ahmad Zaki Validiy To'g'on Shayboniyning noyob "Devon"ini To'pqopi saroyi kutubxonasidan topib, 1927 yilda ilm ahliga dastlab tuhfa etganligi eslatib o'tiladi. Temur Xo'ja o'g'li Shayboniy "Devon"ining jahondagi yagona qo'lyozmasi usmonli turk podshohlari saroyiga qanday kelib tushganligi ma'lum emasligini aytadi. Maqolada shoir ijodidan namunalar ham havola etilgan. Maqola muallifi

Sakkokiy, Gadoiy, Navoiylar an'anasini davom ettirgan Shayboniy she'rlarida diqqatni o'ziga jalb qiladigan xususiyat shoirning Turkiston yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini har doim tilga olib turganidir, deb ta'kidlaydi [Sharipova, 2010: 69]

Shuningdek, bu davrda tarix fanining rivoji sezilarli bo'lganligi bilan ahamiyatli, ko'plab tarixiy asarning aynan shu paytda yaratilishi fikrimiz dalilidir. Shayboniyxon buyrug'i bilan Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbekxonlar o'z asarini yozib, xonga bag'ishlaganlar. Bundan tashqari, ushbu ro'yxatga Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohning “Zubdat ul-ozor” tarixiy asarini, Tanish Buxoriyning “Abdullohnoma” (“Sharafnomai shohiy”) va muallifi noma'lum TN asarini kiritish mumkin. Qayd etilgan tarixiy-badiiy manbalarda Shayboniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va h.k. vaziyat aks ettirilgan.

TN eski o'zbek adabiy tilida yozilgan hamda Chingizxon, Amir Temur va asosan, Shayboniyxon tarixiga bag'ishlangan tarixiy manbadir. Asar muallifi xususida manbashunoslar tomonidan turli fikrlar ilgari surilgan. Ushbu manba Markaziy Osiyo va unga chegaradosh elatlar, xalqlar tarixini bayon etuvchi qimmatli ma'naviy meros sanaladi. Ushbu tarixiy manba basmala, muallif so'zboshisi, o'g'uz, turk, mo'g'ul qabilalari tarixi, Chingizxon va uning avlodlari tarixi, Amir Temur va Temuriylar tarixi hamda Shayboniy tarixini o'z ichiga oladi. Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyning og'asi Mahmud Bahodir Sulton, Shayboniyning o'g'li Muhammad Temur Sultonlar haqida alohida qismlar mavjud.

“Tanlangan hikoyalar – G'alabanoma” ma'nosini beruvchi bu asar XV-XVI asrlardagi o'zbek va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, san'ati, tili va adabiyotiga oid qimmatli manbadir. Ushbu asar o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini kuzatish, shakllanish bosqichlarini o'rganish, rivojlanishdagi o'zgarishlarni tadqiq etishda filolog olimlar uchun; mo'g'ullar, Temuriylar, ayniqsa, Shayboniylar davrini o'rganishda filologlar, tarixshunos, manbashunoslar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy asar mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan va tadqiqotlarga jalb etilmagan.

Tnda yozilishicha, Shayboniyxon Buxoro va Samarqandni bosib olgach, TNni yaratish vazifasini saroy tarixchilariga topshiradi, kitob asosan Shayboniyxon tarixiga bag'ishlangan asar bo'lsa ham, uni bir necha qismlarga bo'lish mumkin. Asarning birinchi qismidan turklar va Chingizxonning ajdodlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, ular uchun Alouddin Ato Malik Juvayniy hamda Fazlulloh ibn Abulhayr Rashiddinning asarlari asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, muallif ushbu bo'limda Ulug'bek Mirzo qalamiga mansub “Tarixi arba' ulus” (To'rt ulus tarixi) asaridan ham ijodiy foydalanganligini asarning o'zidan bilish mumkin. Tnda Abulxayrxon vafoti hamda Shayboniyxonning Movarounnahrni zabt etishdan keyingi davr batafsil yoritilgan bo'lib, 1504 yilda Andijonni zabt etish voqealari bilan yakunlanadi va shu asosda asar voqealarining tugallanishi 1505 yilga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, asar tarkibiy va kompozitsion jihatdan mukammal bo'lib, keyinchalik shu mavzudagi boshqa tarixiy manbalarni yaratishda namuna bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida aytilganidek, asarning kim tomonidan yozilgani ma'lum emas. Tadqiqotchilar orasida bu xususda turlicha fikrlar bor. Masalan, P.I.Lerxning so'zlariga qaraganda, asar Mavlono Jaloliddin Rumiyning o'g'li Ahmad Bahovuddin Volid tomonidan yozilgan [Lerx, 1870:11] Lekin bu gap o'z isbotini topmagan, sababi Sulton Volid bu asar yozilmasidan 300 yil muqaddam (1226-1312) yashab o'tgan. A.A.Semenov, R.G.Muqminova va V.P.Yudin TN Shayboniyxon tomonidan yoki uning yaqin ishtiroki bilan yozilgan, deb qaraydilar [Semyonov, 1954: 13] Ta'kidlash joizki, Shayboniyxon tarixni sevgan, tarixiy asar yaratilishiga xayrixoh bo'lgan, ularning yozilishida bevosita ishtirok

etgani haqidagi faktlarni o'z davrining mashhur tarixchilari keltirib o'tganlar. Boshqa tomondan, muallif Shayboniyxon ekanligiga ham shubha bor. Zero, TNda o'zida muallifning Shayboniyxon xizmatiga kirishi xususida alohida satrlar mavjud. Shubhasiz, asarning yozilishida Shayboniyxonning o'zi aniq ishtirok etgan. Biroq A.M.Akramov asarga zamondosh bo'lgan qo'lyozmalarni tadqiq etgach, Shayboniyxonga yaqinroq bo'lgan Muhammad Solihni asar muallifi deb hisoblaydi [A.M.Akramova, 1967 : 18-19]

A.Akramov TNda ushbu asar Shayboniyxonning farmoniga muvofiq yozilganligini ko'rsatuvchi so'zlarga asoslanib, asar muallifi Shayboniyxon emasligini ta'kidlaydi, ammo u asarning yozilishida Shayboniyxonning ishtiroki bor bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi. Chunki Binoiyning “Shayboniynoma” asaridagi kabi TNda ham ba'zi bir fikr va iboralar xon tilidan naql qilingan va bu mazmundagi jumlar alohida ta'kidlab ko'rsatilgan.

A.Akramov TNning muallifi Muhammad Solih bo'lsa kerak, degan xulosaga keladi. U o'z fikrining dalili sifatida noma'lum muallifning o'z asarida uning qaerdandir Shayboniyxon huzuriga kelgani va xon tomonidan yaxshi qabul qilingani haqida mamnuniyat bilan aytgan so'zlarini keltirib, 1500 yili Samarqand uchun kurash olib borilayotgan vaqtda Muhammad Solihning Boqi Tarxon huzuridan ketib, Shayboniyxon tarafiga qochib o'tganini eslatadi. Bundan tashqari, tadqiqotchi TN va Muhammad Solihning nazmda yozilgan “Shayboniynoma” asari bir reja asosida yozilganligi hamda har ikki asarda ba'zi parchalar va xususan, Shayboniyxonning “Yuzingni ko'rdim ul chortoq ichinda” misrasi bilan boshlangan she'ri borligini alohida uqtirib o'tadi [Nizomiddinov, 1968: 229-233]

Asardagi yana bir noaniqlik Muhammad Solihning Shayboniyxon tomoniga o'tishi III shaxs tilidan berilishida ko'rinadi: *خان زورکاب قاچوروب بو کون تانکلا سمرقندنی الورغه یتکور کاندایاکوت اومقلی* ... – *Xan zor kelib, qachurib, bu kun tonkla Samarqandni alurg'a...*

Tadqiqotchi o'sha davrda kimlar yozgan qaysi asarni sinchiklab o'rganilganligi, boshqa qaysi asarga qay jihatdan solishtirilganligini tadqiqotning 24-betida quyidagicha bayon etadi: “Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxa hijriy 970 yilda mohir xattot tomonidan nasta'liq xati bilan yaxshi bezaklar bilan ko'chirilib, undan o'n yettita ajoyib miniatyuralar bor. Bu nusxaning xati, miniatyuralari va yozilgan yili Mas'ud bin Usmon Quhistonining “Tarixi Abul Xayrxoniy” asari bilan hamda Qosim degan xattot tomonidan ko'chirilgan Muhammad Solihning “Shayboniynoma”si nusxasi bilan solishtirilganda bu nusxalarning xati o'xshashligi ko'zga yaqqol tashlanadi”. A.Akramov yuqoridagi dalilni keltirish orqali TNni Muhammad Solih qalamiga mansub, degan xulosani ilgari surgan.

Bizningcha, TN muallifi Muhammad Solih bo'lishi kerak, degan iddao haqiqatga to'g'ri kelmaydi va asar muallifi masalasi yanada chuqurroq tekshirish, bu xususda yanada ko'proq dalil va ashyoviy materiallarga asoslanib mulohaza yuritishni talab qiladi. Chunki eslatilgan har ikki asarning xati o'xshash bo'lishi mumkin, ammo bu bilan TNni ham kotib Qosim ko'chirgan, deb bo'lmaydi. Zotan, Qosim “Shayboniynoma”ni 1510-yilda ko'chirgan bo'lsa, TN 1562-1563-yillar, ya'ni oradan 52-53 yil o'tgach, ko'chirilgan bo'lib, bu vaqtda Qosim vafot etgan yoki juda keksayib qolgan bo'lishi kerak.

Faraz qilaylik, “Tavorix”ni ham kotib Qosim ko'chirgan, hatto, “Shayboniynoma”ga miniatyuralar ishlagan bo'lsin, lekin bu bilan so'z yuritilayotgan asar Muhammad Solih qalamiga mansub bo'lib qolmaydi. Chunki xattotlik noyob hunar bo'lib, xattotga kim ish buyurib, haq to'lasa, o'shaning topshirig'ini bajaraverishi tarixdan ma'lum. Binobarin, faqat chuqur matnshunoslik

tadqiqotlari asosida asar muallifini aniqlash birdan-bir maqbul yo‘l bo‘lib, bu mutaxassisdan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lerx P.I. Arxeologicheskaya poezdka v Turkestanskiy kray v 1867 g. – SPb, 1870 – S. 11.
2. Nizomiddinov I. Qayta tug‘ilgan asar. // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1968, №3. – B. 229-233.
3. Samoylovich A.N. K istorii literaturnogo sredneaziatsko-tureskogo yazыka. // Mir-Ali-Shir. Sbornik k pyatisotletiyu so dnya rojdeniya. – L., 1928. – S. 21. 181
4. Semyonov A.A. Pervыe Sheybanidы i borba za Mavarannaxr. /Materialы po istorii tadjikov i uzbekov v sredney Azii. – Stalinabad, 1954. – S. 13.
5. Tavarix-i guzida-Nusrat-name. Isledovanie, kriticheskiy tekst, annotirovannoe oglavlenie i tablitsa svodных oglavleniy kandidata filol. nauk A.M.Akramova. – T.: Fan, 1967. – C. 18-19.
6. Temur Xo‘ja o‘g‘li. Turk saroyidagi nodir asar. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1991 yil 20 dekabr. №51 (3155)
7. Sharipova M. Muhammad Shayboniy ijodi xorijda. // Jahon adabiyoti. 2010 yil, 4-son.
8. *تواریخ کزیره نصرت نامه* – O‘zRFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Toshbosma. № 4347.
9. *خاندامی حبیب السیر*. Xondamir. Habib us-siyar. – Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti. – №1716.